

Rauanuz

**KANALIZATSIYA XIZMATLARI UCHUN  
№ 4 / 802 -22-sonli SHARTNOMA.**

Navoiy sh.

19.01. 2022 yil

"Issiqlik manbai" Davlat unitar korxonasi nomidan, 06.01.2022 yildagi 02-22/11-22-sonli ishonchnomma asosida ish yurituvchi "Issiqlik Manbai" DUK Navoiy filiali boshlig'i Sh.R.Axmedov, bundan keyin "Ijrochi"deb yuritiladi, bir tomondan va NAVOIY VILOYAT BOSH TIBBIY IJTIMOY EKSPERT KOMISSIYASI nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi Raisi Shodiev U.R.,bundan keyin "Buyurtmachi"deb yuritiladi, tomonlar ushbu shartnomani quydagicha tuzdi:

**1. SHARTNOMA MAVZUSI.**

1.1. "Ijrochi" 01.01.2022 yildan 31.03.2022 yilgacha "Buyurtmachi" ga umumiy hajmi  $81 \text{ m}^3$  bo'lgan, umumiy qiymati 385965 so'm QQS bilan kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Buyurtmachi" chiqindi suvlarni shahar kanalizatsiya tarmog'iga to'kish uchun kommunal ekologik normativlarni (KEN) ishlab chiqishga majburdir va shahar kanalizatsiya tizimiga chiqadigan oqova suvlarning miqdoriy, sifat va kimyoviy tarkibi bo'yicha texnik shartlarga qat'iy rioxqa qilishi shart.

**2. SIFATI.**

2.1. Ob'ektning oqova suvidagi ifloslantiruvchi moddalarining konsentratsiyasi quydagi ko'rsatkichlardan oshmasligi kerak:

KBBT (BPK)	-180-150 mg O <sub>2</sub> / l
Um.azot	- 20 mg / l dan oshmasligi kerak
Fosfatlar	- 2,5 mg / l dan oshmaydi
SSFM (SPAV)	- 10 mg / l
Nitratlar	- 40 mg / l
Nitrit	- 0,8 mg / l
Neft mahsulotlari	- 0,08 mg / l

2.2. 2.1-bandda ko'rsatilmagan moddalar KENDa MREO (PDS) maksimal ruxsat etilgan tartibga soluvchi ko'rsatkichlari bo'lmasligi taqdirda, shahar kanalizatsiyasiga tashlash taqiqlanadi.

**3.HISOB – KITOB QILISH TARTIBI.**

3.1. Maishiy xo'jalik oqova suvlarni hisobga olish tasdiqlangan "Qoidalar" ga muvofiq amalga oshiriladi va "Buyurtmachiga" yetkazib beriladigan suv miqdoriga teng deb hisoblanadi. Issiq suv ta'minotidan foydalanishda maishiy xo'jalik oqova suv miqdori issiq suv hajmini hisobga olgan holda taqdim etiladi.

3.2. "Buyurtmachi" vakili har oyning 30-31 kunida "Issiqlik manbai" DUK filialiga kelib, yakuniy hisob-kitob uchun taqdim etilgan kanalizatsiya xizmatlari hajmini kelishib oladi. Ishtirok etmagan taqdirda, oqava suv hajmi imzosiz taqdim etiladi va hisob-kitoblar uchun haqiqiy deb hisoblanadi.

**4. NARXI, SHARTNOMANING UMUMIY MIQDORI VA TO'LOV SHARTLARI.**

4.1. Uchinchi guruh bo'yicha kanalizatsiya xizmatlarining narxi Navoiy viloyati moliya boshqarmasi tomonidan 01.11.20 yildan QQS bilan  $1\text{m}^3$  uchun 4715 so'mni tashkil etadi Navoiy viloyati hokimining 11.04.2019 yildagi K-69-sonli qaroriga binoan, "Buyurtmachi" har oy "Ijrochiga" maishiy xo'jalik oqava suvning har bir kubometri uchun maxsus qo'shimcha haq evaziga -50 so'm to'laydi.

Agar kanalizatsiya xizmatlari uchun tariflar sanasidan qat'iy nazar o'zgargan bo'lsa, kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma o'z kuchida qoladi va "Buyurtmachi" xizmatlarni joriy qilingan kundan boshlab yangi tariflar bo'yicha to'lashga majburdir.

4.2. Kanalizatsiya xizmatlari uchun to'lov joriy oyning oxiriga qadar 100% oldindan to'lov, o'tgan oyning hajmiga muvofiq amalga oshiriladi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 noyabrdagi UP-5241-sonli "Suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatishda to'lov intizomini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni asosida).